

**TADBIRKORLIK SUB'EKTLARINING FAOLIYATINI MOLIYAVIY QO'LLAB-
QUVVATLASHNI TARTIBGA SOLISH MEXANIZMI**

Davronov Saxobiddin Faxriddinovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14597881>

Tadbirkorlik faoliyati turli shakllarda namoyon bolishi mumkin, jumladan, startapni boshlash, öz biznesingizni rivojlantirish, franchayzing, investitsiya, konsalting va boshqa tijorat faoliyati.

Tadbirkorlik iqtisodiyot subektlarining mavjud iqtisodiy, tabiiy, mehnat va aqliy salohiyatlardan samarali foydalanib yuqori pirovard natijalarga erishishi bilan tavsiflanib, bozor munosabatlari rivojlanishi jarayonida iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi.

Tadbirkorlik faoliyatining mohiyatini ochishda Q.Muftaydinov tomonidan berilgan tarif óziga xosligi va keng qamrovligi bilan ajralib turadi. «Tadbirkorlik iqtisodiy faoliyatni harakatlantiruvchi kuchi sifatida iqtisodiy maxovik bolib, bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik faoliyatini va istemol talablarini e'tiborga olgan holda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning uzluksizligini taminlaydi»¹, - degan goyani ilgari suradi. Ushbu tarifda muallif boshqalardan farqli olaroq tadbirkorlikka iqtisodiy faoliyatni harakatlantiruvchi kuchi sifatida takror ishlab chiqarish uzluksizligini taminlashi, uning samaradorligi esa turli mexanizmlardan foydalanish darajasiga bogliq ekanligiga alohida urgu bermoqda.

U.V.Gafurov «Kichik biznes subektlari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish shakl va vositalari kichik biznes sohasining rivojlanganlik darajasiga kora ózgarib, unga mos tushuvchi vositalar qollanib borishi lozim»² deb takidlab otgan. Mazkur yondoshuvning mohiyatiga toxtaladigan bolsak, U.V.Gafurov tadbirkorlik subektlar faoliyatini tartibga solishda bevosita davlat ishtirokining bolishini, tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda davlatning malum bir vositalar orqali tartibga solishiga e'tibor qaratilishiga toxtalgan.

Bizning fikrimizcha, tadbirkorlikning óz iqtisodiy tabiati mavjud bolib, ushbu mavjudlik uning ikki tomonlama xususiyatida namoyon boladi: bir jihatdan tadbirkorlik mulkchilik sifatida bolsa, ikkinchi tomondan, tadbirkorlik xojalikni oqilona yuritish va boshqarishdir. Otkazilgan tadqiqotlar va ilmiy tahlillarimiz natijasida shunga amin boldikki, tadbirkorlik: bir tomondan, tadbirkor mulkchilikning turli shakllariga asoslangan holda, óz mulkidan kapital sifatida foydalanib, tijorat bilan shugullanib, yangi usul va yuqori texnologiyalarni qollagan holda boylikdan boylik orttiradi. Bu esa, óz navbatida mamlakatning iqtisodiy qudratini oshiradi.

Ikkinchi tomondan, ushbu usulni amalga oshirish ustun darajada tadbirkorning tashkilotchilik darajasiga bogliq boladi. Tadbirkorning daromad olishi va miqdori tovarlarga bolgan talab bilan uzviy bogliq. Tadbirkorning bozorda óz ornini topa olishi va muvaffaqiyatga erishishi marketing tadqiqotlarini otkazishdagi faollik, tashabbuskorligi darajasiga bevosita bogliqdir.

¹ Muftaydinov Q. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirish muammolari. / Dis. ... iqt. fan. d-ri. - T/, 2004. -18-b.

² Gafurov U.V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. / Dis. avt. ref... iqt. fan. d-ri. - T., 2017. -30-b.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslanib, tadbirkorlikka quyidagicha tarif beramiz: «Tadbirkorlik-bu biznesni yaratish va boshqarish jarayoni bolib, odatda bozorda amalga oshirish uchun yangi goyalar, mahsulotlar yoki xizmatlarni ishlab chiqish bilan bogliqdir». Tadbirkor muvaffaqiyat va foyda olish uchun moliyaviy, tashkiliy va strategik qarorlar qabul qilib, tashkilotchi va biznes rahbari sifatida ishlaydi. Shuningdek, u biznes bilan bogliq xatarlar uchun javobgardir va innovatsiyalar, ish orinlari yaratish va iqtisodiy osishni ragbatlantirishga intiladi.

Ayrim olimlar «tadbirkorlik faoliyatini huquqiy va tashkiliy jihatdan organishida – ular ushbu faoliyatni qonun hujjatlar doirasida korxona, firma tashkil qilish, foyda olish maqsadida mahsulot ishlab chiqarish bilan shugullanuvchi faoliyat ekanligini takidlaydi»³.

‘O‘zbekistonlik yana bir iqtisodchi olim prof.I.B.Zokirovga kora, «tadbirkorlik faoliyati yuridik shaxslar, fuqarolar yoki fuqaro tomonidan o‘z tavakkalchiliklari va mulkiy javobgarliklari asosida shaxsiy daromad (foyda) olish maqsadida qonunlar doirasida amalga oshiriladigan tashabbuskor xojalik faoliyati degan mazmunni bildirishini takidlaydi»⁴. Ushbu ilmiy fikrlar va tushunchalar ham ilmiy asoslantirilgan. Lekin, ularning ishlarida ushbu faoliyatning sof fuqarolik-huquqiy mazmuniga, uning o‘ziga xos belgilariga va xususiyatlariga alohida e’tibor qaratatilmagan.

Fikrimizcha, tadbirkorlik faolligi tadbirkorlik bilan shugullanish jarayonida bozor muhitining o‘zgaruvchanlik xususiyatiga moslashish, mavjud aqliy, moddiy, moliyaviy, tashkiliy imkoniyatlardan samarali foydalanishdir. Tadbirkorlik faolligining miqdoriy pirovard natijasi bozor talablaridan kelib chiqqan holda mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarilishidagi erishilgan mehnat unumdorligi darajasi va mahsulotni sotilishidan olingan foyda miqdori hamda erishilgan samaradorlikda namoyon boladi. Iqtisodiy adabiyotda tadbirkorlik faolligi tushunchasi yetarli darajada organilmagan bolib, mavjud manbalarda uning ayrim jihatlari berilgan xolos.

Tadbirkorlik sub’ektlarining faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni tartibga solishda moliyaviy faoliyatning shaffofligi va ochiqligi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Tadbirkorlik subektlari nazorat qiluvchi organlar va manfaatdor tomonlar oldida shaffoflik va ochiqlikni taminlash uchun o‘zlarining moliyaviy faoliyati togrisida ishonchli malumotlarni taqdim etishlari shart. Tadbirkorlik subyektlari davlat organlari va regulyatorlari tomonidan belgilangan barcha moliyaviy qonunlar va normativ hujjatlarga rioya qilishlari shart.

Tadbirkorlik subektlari o‘zlarining biznes rejalarini amalga oshirish va tolov qobiliyatini taminlash uchun etarli moliyaviy resurslarga ega bolgan holda moliyaviy barqarorligini taminlashlari hamda tadbirkorlik subektlari o‘z faoliyati bilan bogliq moliyaviy xatarlarni tahlil qilishlari va nazorat qilishlari shuningdek, ularni boshqarish strategiyasini ishlab chiqishlari lozim.

Tadbirkorlik subektlari moliyaviy resurslardan samarali foydalanish orqali investitsiyalardan maksimal foyda olish va rentabelligini oshirish uchun moliyaviy resurslaridan samarali foydalanishga intilishlari hamda tadbirkorlik subektlari firibgarlik, korruptsiya va boshqa salbiy amaliyotlardan qochib, moliyaviy faoliyatida yuqori axloqiy meyorlarga rioya qilishlari kabi tamoyillari mavjud.

³ Mirsaidov M.S. Tadbirkorlik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002. - 185 b

⁴ Zokirov I.B. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik huquqi. Darslik. – Toshkent: 2007. 149-b.

Shunday qilib, tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini iqtisodiy rivojlanish modellarini shakllantirish metodologiyasi asosida belgilangan tartibga solish uchun nazariy yondashuvlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'nalishini topishga qo'yiladigan talablarni va butun rivojlanish darajasiga qarab davlat tomonidan tartibga solish va iqtisodiyotning o'z-o'zini boshqarish munosabatin aniqlashni tartibga solishning eng muhim normativ tamoyillarini tanlash uchun sharoit yaratadi. Uning asosida evolyutsion, davlatchilik, demokratlashtirish, o'zini o'zi boshqarish va davlatni tartibga solish, ijtimoiy motivatsiyaning klassik tamoyillari asoslangan.

References:

1. Muftaydinov Q. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirish muammolari. / Dis. ... iqt. fan. d-ri. - T/, 2004. -18-b.
2. Gafurov U.V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. / Dis. avt. ref... iqt. fan. d-ri. - T., 2017. -30-b.
3. Mirsaidov M.S. Tadbirkorlik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2002. - 185 b
4. Zokirov I.B. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik huquqi. Darslik. – Toshkent: 2007. 149-b.